

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-noyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 8991,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 135,0 %ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2398,4 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 8991,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyo'gina eng katta ulushni savdo xizmatlari (30,7 %), transport xizmatlari (27,6 %), moliyaviy xizmatlar (9,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar tarkibi, %




2018 yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8991,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	8991,5	108,1
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	557,1	114,5
moliyaviy xizmatlar	887,6	135,0
transport xizmatlari	2481,2	106,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2272,8	102,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	239,4	102,3
savdo xizmatlari	2758,5	103,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	252,8	103,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	404,3	109,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	122,5	111,5
ijara xizmatlari	322,3	106,1
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	264,7	103,1
shaxsiy xizmatlar	379,5	102,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	77,7	140,5
boshqa xizmatlar	243,9	103,4

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (140,5 %), moliyaviy xizmatlar (135,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (114,5 %), sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar (111,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (109,6 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari (102,3 %), shaxsiy xizmatlar (102,4 %), kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda (103,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,5 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'satilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajming deyarli uchdan bir qismini transport xizmatlari tashkil etdi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 27,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni savdo xizmatlari (30,7 %), moliyaviy xizmatlar (9,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi




2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 7551,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1439,7 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-oktabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 937,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (274,2 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (264,2 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (100,5 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (46,0 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2017 yilning mos davrida savdo xizmatlari 294,1 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 64,3 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 49,9 mlrd. so'mga oshgan.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,1 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 14,3 % ga etdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 9,6 % ni egallaydi.

Avtomobil transportida yo'lovchi tashish ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismni egallaydi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 72,1 % ga etdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 27,9 % ni tashkil etdi.

Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %



2018 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2398,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
(71) 230-85-35